

# **O‘RQ 767-sonli Qonuni ga asosan Soliq kodeksiga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar**

## **2022 yil 7 mayda O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ 767-sonli Qonuni ga asosan Soliq kodeksiga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalarga muvofiq,**

### **TUSHINTIRISH**

2022-yil 7 mayda O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ 767-sonli Qonuni qabul qilindi.

Ushbu Qonun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 noyabrdagi “Elektron tijorat ma‘murchiligini takomillashtirish va uni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish to‘g‘risida”gi PQ–14-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 23 noyabrdagi “Orolbo‘yi mintaqasida tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–25-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Qonunning –maqsadi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash hamda Soliq kodeksi me‘yorlariga moslashtirishdan iborat.

Qonunga asosan O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 75-moddasi quyidagi o‘n birinchi qism bilan to‘ldirildi.

«Ushbu Kodeksning 483-moddasida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hamda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lashdan to‘liq ozod qilish tarzida berilgan soliq imtiyozlariga ega bo‘lgan soliq to‘lovchilar mazkur soliqlarni ushbu soliqlardan hisoblangan summaning bir foizi miqdorida to‘laydi».

Ya‘ni Soliq kodeksining 483-moddasi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hamda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lashdan to‘liq ozod qilish tarzida berilgan soliq imtiyozlarga ega bo‘lgan soliq to‘lovchilar endilikda mazkur soliqlarni ushbu soliqlardan hisoblangan soliq summaning bir foizi miqdorida to‘laydi.

75-moddaning o‘n birinchi qism esa o‘n ikkinchi qism deb almashirildi.

Kodeksning chegirib tashlanmaydigan xarajatlar to‘g‘risidagi 317-moddasining 7-bandiga, shuningdek Bolalarni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondiga xayriya qilingan mablag‘lar mustasno degan so‘lar kiritildi. Ya‘ni Bolalarni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondiga xayriya qilingan mablag‘lar ham chegirib tashlanadigan xarajatlar jumlasiga kiradigan bo‘ldi.

Elektron tijorat ishtirokchilariga, ularning milliy reestriga kiritilgan yoki kiritilmaganligidan qat‘i nazar foyda solig‘i va aylamadan olinadigan soliq bo‘yicha imtiyozlar berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 noyabrdagi “Elektron tijorat ma‘murchiligini takomillashtirish va uni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish to‘g‘risida”gi PQ–14-son qaroriga asosan Soliq kodeksining 337 va 467-moddalariga quyidagi o‘zgartish kiritildi:

- elektron tijorat ishtirokchilariga, ularning milliy reestriga kiritilgan yoki kiritilmaganligidan qat'i nazar foyda solig'idan 7,5 foiz va aylamadan olinadigan soliq bo'yicha 2 foizlik pasaytirilgan soliq stavkalari qo'llaniladi.

Kodeksning 380-moddasi birinchi qismi birinchi xatboshiga bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 3 baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha soliq solishdan ozod etilishi me'yori kiritildi. Ilgari mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha soliq solishdan ozod etilishi ko'zda tutilgan edi.

Kodeksning 428-moddasi ikkinchi qismi 11-xatboshiga asosan soliq solinmaydigan yer uchastkasi jumlasiga kiradigan, yangi barpo etilayotgan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat'i nazar, uch yil muddatga. Kuzda o'tqazilgan yangi ko'chatlar uchun beriladigan soliq imtiyozini muddatini hisoblab chiqarish keyingi yilning 1 yanvaridan e'tiboran boshlanadi, bahorda o'tqazilgan ko'chatlar uchun esa joriy soliq davrining 1 yanvaridan e'tiboran boshlanadi degan bandidagi «uch yil» degan so'zlar «besh yil» degan so'zlar bilan almashtirildi.

Ya'ni yangi barpo etilayotgan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat'i nazar besh yil muddatga soliq solinmaydigan yer uchastkasi jumlasiga kiritiladi.

Kodeksning 483-moddasi uchinchi qismidagi qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududiga o'simlik yog'i, kungaboqar va zig'ir urug'i, shuningdek soya danagini olib kirish;

o'simlik yog'ini (paxta yog'idan tashqari) ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish bo'yicha aylanmalarga 2022 yil 30 aprelgacha bo'lgan imtiyoz 2022 yilning 31 dekabriga qadar uzaytirildi.

Kodeksning 483-moddasi to'qqizinchi qismi bo'yicha belgilangan imtiyozlar muddati 2022 yildan 2022 yilning 31 dekabriga qadar uzaytirildi va quyidagi tahrirda bayyo qilindi.

“2021 yilning 10 oktyabridan 2022 yil 30 aprelga qadar bo'lgan davrda tovuq go'shtini, muzlatilgan baliqni va tirik parrandani, 2021 yil 10 oktyabrdan 2022 yil 31 dekabr qadar bo'lgan davrda esa go'shtni (mol go'shtini, qo'y go'shtini), tirik hayvonlarni (molni va qo'yni) hamda ularni so'yishdan olingan mahsulotlarni, kartoshkani realizatsiya qilish bo'yicha aylanma, shuningdek ularni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi».

Kodeksning 483-moddasiga quyidagi mazmundagi o'n oltinchi, o'n yettinchi va o'n sakkizinchi qismlar bilan to'ldirildi:

2022 yil 1 yanvardan 2031 yil 1 yanvargacha qadar bo'lgan davrda Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq tumanidagi mahalliy sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasidagi tadbirkorlik sub'ektlari:

foyda solig'ini, aylanmadan olinadigan soliqni, ijtimoiy soliqni va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini 1 foiz miqdoridagi soliq stavkalari bo'yicha to'laydi;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni mazkur soliqlar bo'yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdoridagi soliq stavkalari bo'yicha to'laydi.

Bo'yalgan matoni, bo'yalgan gazlamani va tayyor tikuv-trikotaj mahsulotini eksport qiluvchi tadbirkorlik sub'ektlari (shu jumladan komissioner (ishonchli vakil) orqali eksport qilgan tadbirkorlik sub'ektlari) 2022 yil 1 fevraldan 2025 yil 1 yanvargacha qadar bo'lgan davrda ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdoridagi soliq stavkasi bo'yicha to'laydi.

Ushbu moddaning o'n yettinchi qismida nazarda tutilgan imtiyoz bo'yalgan mato, bo'yalgan gazlama va tayyor tikuv-trikotaj mahsulotini eksport qilishdan olingan tushumi barcha tovarlarni va xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan tushumining kamida 80 foizini tashkil etadigan soliq to'lovchilarga nisbatan qo'llaniladi».

Mazkur tushintirish barcha soliq to'lovchilarga yetkazilsin, 2022 yil 30 may kuniga o'quv- seminarlar tashkil qilinsin va o'tkazilsin. O'tkazilgan seminarlar to'g'risida 2022 yilning 1-iyuniga qadar Davlat soliq qzmitasiga ma'lumot berilsin.